



UO'T: 631.52:633.85.

HOSILDOR G'O'ZA TIZMALARINI TANLASH VA RIVOJLANTIRISH

Abduraximova Anoraxon Rustamboyevna 
q.x.f.f.d., v.b.dotsent

Abduraximov Samandar Rustamboyevich 
tayanch doktorant

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyar instituti

Annotatsiya. Paxta hosildorligi shakllanishi juda ham murakkab belgi hisoblanadi. Hosildorlik g'o'za o'simligidagi ko'saklarning soni va bitta ko'sakdagi paxtaning vazni bilan aniqlanadi. Shu bilan birga hosildorlik ko'p boshqa belgilarga - masalan, ertapisharlik, kasallik va zararkunandalarga chidamlilik va navning o'zgaruvchan muhit sharoiti ta'siriga moslashish xususiyatiga bog'liqdir.

Kalit so'zlar; Tizma, hosildorlik, iqtisodiy samaradorlik, hosildorlik ko'rsatgichi, davlat nav sinovi.

Аннотация. Формирование урожайности хлопка является очень сложным признаком. Урожайность определяется количеством коробочек на растении хлопка и весом хлопка в каждой коробочке. В то же время на урожайность влияют многие другие признаки, такие как раннеспелость, устойчивость к болезням и вредителям, а также способность сорта адаптироваться к изменяющимся условиям окружающей среды.

Ключевые слова: Система, Урожайность, Экономическая эффективность, Показатель урожайности, Государственные сортовые испытания

Abstract. Cotton yield formation is a highly complex trait. Yield is determined by the number of bolls on a cotton plant and the weight of cotton in each boll. At the same time, yield is influenced by many other traits, such as earliness, resistance to diseases and pests, and the adaptability of the variety to changing environmental conditions.

Keywords: System, Yield, Economic efficiency, Yield index, State variety trial.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

KIRISH

Mamlakatimizda bugungi kunda paxta maydonlariga xo'jalik jihatidan yuqori qimmatli xususiyatlarga ega bo'lgan navlarni ekish - qo'shimcha mehnat va mablag' sarflamay, hosildorlikni oshirishga va paxta tolasining sifatini yaxshilashga imkon beradi. Seleksioner olimlarning paxtachilikni yanada rivojlantirishga qo'shgan muhim hissasi ham ana shundan iborat.

Ertapisharlik odatda hosildorlikka egri chiziq bo'yicha bog'liq. SHuning uchun bu belgilarning korrelyasiya koeffitsienti emas, balki korrelyasion munosabat hisoblab topiladi. Ertapisharlik bilan hosildorlik o'rtasidagi egri chiziqdan ko'rinishicha, eng ertapishar formalar kamhosil bo'ladi. Vegetatsiya davri uzaygan sari hosil ma'lum chegaragacha ortadi, juda kechpishar formalarda esa hosil yana kamaya boshlaydi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarda ham tizmalarning hosildorlik kriteriysi tajribaning asosiy ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi. O'rganilgan duragaylarning hosildorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2024-2025 yilda tizmalar orasida eng yuqori hosil bergan 30-tizma (42,1 s/ga) bo'lib, andoza navga nisbatan 5,2 s/ga qo'shimcha hosil olindi. Xuddi shunga o'xshash natija 14-tizmada ham kuzatildi. Bu tizma ham tadqiqotning birinchi yilida nazorat navga nisbatan 5,1 s/ga qo'shimcha hosil berib (42 s/ga), tizmalar orasida nisbatan yuqori hosildorlikka ega ekanligini namoyon qildi.

Tizmalardan 1-tizma 34,9 s/ga hosil berib, andozaga nisbatan ham, boshqa tizmalarga nisbatan ham kam hosilligini ko'rsatdi. Qolgan tizmalar nazoratga nisbatan birozgina yuqoriroq hosil berib, hosildorligini namoyon qildi.

2024-2025 yillarda tajribada olingan hosildorlik ma'lumotlari tahlil qilinganida, tizmalar orasida eng yuqori hosil bergan 30-tizma (41,9 s/ga) va 14-tizma (40,8 s/ga) bo'lib, andoza navga nisbatan 5,3 va 4,2 s/ga qo'shimcha hosil berdi. Kam hosil berish bo'yicha tizmalar orasida tajribaning boshqa yillarda kuzatilgan natijalar deyarli takrorlandi, ya'ni, 1 va 3-tizmalar 36,8 va 37,3 s/ga hosil berib, tizmalar orasida va andoza navga nisbatan ham sezilarli kamhosil ekanligini namoyon qildi.

XULOSA

O'rganilgan hosildorlik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tizmalar orasida eng yuqori hosildorlik 30-tizmada kuzatildi. Bu tizma 41,9 s/ga hisobida hosildorligini namoyon qilib, andozaga nisbatan 5,0 s/ga qo'shimcha hosil berdi. Xuddi shunga o'xshash natijalar 14 va 8-tizmalarda ham kuzatilib, tegishli 41,3 va 40,0 s/ga hosildorlikka erishildi. Bu natijalar andoza nav Andijon-36 ga nisbatan 4,4 va 3,1 s/ga yuqoriroqdir. Boshqa tizmalar to'g'risida so'z yuritilganida, albatta ularning ham nazorat naviga nisbatan biroz yuqori hosil berganligini aytib o'tish joizdir,



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

faqatgina 1-tizma uch yilda o'rtacha 36,3 s/ga hosildorlikka erishib, nazoratga nisbatan 0,6 s/ga kamhosil ekanligini namoyon qildi.

Yana shu narsani alohida e'tirof etish kerakki, dastlabki davrlaridan boshlab aksariyat ijobiy ko'rsatkichlarni namoyon qilib kelayotgan tizmalar, bular, 30 va 14-tizmalardir. Kelgusida kuzatish va hisoblashlar natijasida ushbu tizmalar xo'jalik uchun qimmatli belgilari, tolasining texnologik ko'rsatkichlari, moydorligi va ulardan olinadigan iqtisodiy samaradorlik jihatlari bo'yicha ijobiy natijalarga erisha olsa, ulardan yangi navlar yaratishda Davlat nav sinoviga sinash uchun taqdim qilishga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Amanturdiyev A., Ibragimov P., Namazov Sh. Seleksiya-urug'chilik yutuqlari, muommolari.// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 20026.
2. Abduraximova A.R. Tola sifati IV tipga mos, hosildorligi yuqori g'o'za navlarini yaratish.// Monografiya. Andijon-2024
3. Egamov X., Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va aprotatsiyasi // Darslik. Andijon-2019 "Hayot" nashriyoti.